



PREZIDENT SAYLOVIDA YOSHLAR FAOLLIGI

Jamiyatning yorqin belgilaridan biri hayotiy qarorlarni ko'pchilik bo'lib qabul qilishdir. Ana shunday jarayonlarga saylov yorqin misol bo'ladi. Saylov – mamlakatning siyosiy-ijtimoiy hayotidagi eng muhim jarayonlardan biri. Har bir saylovchining ovozi zamirida mamlakatning ertasi, avlodlar kelajagi va fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy haq-huquqlari mujassam.



Asilbek ABDURAIMOV,
O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
Bank iste'molchilari huquqlarini himoya qilish xizmati
bosh mutaxassisi,
Andijon viloyati "Kelajak liderlari" klubi a'zosi

SENING KELAJAGING UCHUN!

**BMT Bosh Assambleyasining 2011-yil 19-dekabrdaqi rezolyutsiyasiga asosan,
11-oktabr — Xalqaro qizlar kuni deb e'lon qilingan**

Mazkur sana munosabati bilan Yoshlar ishlari agentligi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar yoshlar markazlarida "Sening kelajaging uchun" shiori ostida forum bo'lib o'tdi.

Forum doirasida "Yoshlar daftari"ga kiritilgan qizlarning ijodiy ishlari, ishsiz qizlarni ish bilan ta'minlash maqsadida zavod va fabrikalarga sayohatlari, mehnat yarmarkalari, kiotob savdosi va yarmarkasi tashkil etildi.

Forum bayram dasturlari asosida konsert shaklida o'tkazildi hamda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan va 10 ga yaqin yo'nalishlarda alohida imtiyozlarni qo'lga kiritgan respublika miqyosidagi 150 nafardan ortiq yosh xotin-qizlarga maxsus sertifikatlar topshirildi.

Shu kunlarda mamlakatimiz ahli saylov ruhi bilan yashamoqda. Saylovlarning erkin va shaffof o'tishi demokratik davlatning asosiy tamoyillaridan biridir. Davlatimiz tomonidan Yangi O'zbekistonning faol va tashabbuskor yoshlari qatlamiga ham o'zlarining davlat boshqaruvidagi ishtirokini, o'z saylov huquqlarini hech qanday to'sqinliksiz amalga oshirishi kafolatlangan.

Ta'kidlash joizki, Markaziy saylov komissiyasi O'zbekistonda say-

lovchilarning yagona elektron ro'yxatiga 21,2 million fuqaro kiritilganini ma'lum qilgan edi. Ulardan 6,9 millioni (qariyb 33 foizi) 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardir. Shundan 880 155 nafar yosh ilk marotaba saylovda qatnashadi. Ilk marotaba saylovda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan fuqarolar mamlakatimizda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlarga

Davomi 12-sahifada.

JOZIBADOR G'OYALAR ularning mustahkam asosi ham bo'lishi lozim



Siyosiy partiyalarning saylovoldi dasturlaridagi aksariyat g'oyalari reallikdan ancha yiroq. Ayniqsa, iqtisodiyotimizni ko'tarishga qaratilgan takliflarni turli uchrashuvlar, hatto oddiy suhbatlar chog'ida ham iqtisoddan xabari bor odamlar o'zaro bahslashib, hisobini chiqarolmay ovora bo'layotgani sir emas.

Darhaqiqat, ba'zi saylovoldi dasturlarida davlat byudjeti hisobiga balandparvoz iqtisodiy rejalarni amalga oshirish taklif etilayotgani ancha bahstalabdir.

Shu nuqtayi nazardan siyosiy partiyalarning saylovoldi dasturlariga kiritilgan "sirti

yaltiroq" g'oyalarga bir nazar sotsak.

"Adolat" SDPdan ko'rsatilgan nomzodning saylovoldi dasturida ham o'ziga xos bahsli takliflar mavjud.

Birinchi, uy-joylarning narxini keskin kamaytirish, aholining ijtimoiy himoyaga

muhtoj qatlamlarini munitsipal uylar bilan ta'minlash masalasi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, xalqimiz ehtiyojini to'la qondirish uchun har yili 145 ming xonadondan iborat uylar qurish kerak. Buning uchun esa, qariyb 30 trillion so'm zarur bo'ladi. Bu mablag' davlat byudjetining 23 foizidan ziyodini tashkil etadi. O'z-o'zidan ayonki, davlat byudjetining buncha qismini birgina shu sohaga ajratib bo'lmaydi. Shuningdek, davlat xususiy sektor ishtirok-

isiz aholi ehtiyojini to'la qondirishi qiyin. Shu bois, ipoteka tizimiga bosqichma-bosqich o'tish, bozor mexanizmlarini joriy etish, sohada xususiy sektorning o'rmini oshirish katta ahamiyatga ega.

Ikkinchisi, pensiyadagi yuqori cheklavlarni bekor qilish, mehnatga, maoshga va ijtimoiy to'lovlarga yarashta pensiya ta'minotini yo'lga qo'yish borasidagi takliflar.

Davomi 6-sahifada.


“O‘ZBEKISTON MATBUOTI” va “MUSHTUM” QAYTMOQDA

XUSHXABAR

Jadidlar davrida millatni uyg‘otish, madaniyatni rivojlantirish, xalqni taraqqiyot sari chorlash maqsadida ko‘plab jurnal va gazetalar tashkil etilgan. Eng salmoqli nashrlariga vaqt chig‘irig‘idan o‘tib, bugungacha yetib keldi.

6-oktabr kuni Milliy matbuot markazida ana shunday nashrlardan biri “O‘zbekiston matbuoti” jurnalining 2021-yildan qayta nashr etila boshlagan ilk soni taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Qariyb 103 yillik tarixga ega jurnal Jurnalistlar ijodiy uyushmasi, Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz, Barqaror rivojlanish markazi va “AQUA TRIO” MChJ tashabbusi bilan qayta tiklandi. Shuningdek, jadidlar asos solgan yana bir jurnal “Mushtum” ham qayta mushtariylar yuzini ko‘rish arafasida turibdi. Jurnalning qayta tiklanayotgan ilk soni bosmaxonaga yuborilgan va tez kunda taqdimoti o‘tkazilishi rejalashtirilmoqda.

Ma‘lum davr mobaynida mavzular ko‘lamining kichrayib ketishi, satirik va tanqidiy yo‘nalishdagi janrlar kamayib ketgani, iqtisodiy muammolar va yana boshqa sabablar tufayli bir paytlar 1 500 000 nusxada chop etilib, yurtimizning har bir shahar, qishloq, tuman,



tashkilot va xonadoniga kirib borgan jurnallar o‘z ahamiyatini yo‘qota boshladi. Ammo vaqt o‘tgani sayin yuqoridagi jurnallar qadriyat, tarix, mahorat maktabi va ularni asrab qolish avlodlar oldidagi burchimiz ekanligini angladik. Ularning qayta tiklanishi esa barchamiz uchun yaxshi yangilik bo‘ldi. Ishonamizki, “O‘zbekiston matbuoti” va “Mushtum” jurnali bugungi davr matbuotida yangicha nafas bilan o‘z o‘rnini qayta egallaydi.

Shahribonu
RAHMATOVA

“OLTIN QANOT” PARVOZI YUKSALMOQDA!

Yoshlar — yangi zamon bunyodkorlari. Shijoatli yoshlarining ilg‘or fikrlariga bugun har qachongidan ham ehtiyoj katta va e‘tibor ham shunga yarasha.

Yaqinda Qozog‘istonning Olmaota shahrida “Nodavlat-notijorat tashkilotlarini rivojlantirish asoslari” mavzusida uch kunlik o‘quv seminarida “Oltin qanot” volontyorlar tashkiloti rahbari San‘atbek Muzaffarovning loyihasi xalqaro grant g‘olibi bo‘lgan edi.

Kuni kecha “Oltin qanot” volontyorlar tashkilotida Britaniyalik jurnalist Joanna Lillis bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Joanna Lillis jurnalist, Markaziy Osiyo bo‘yicha muxbir, “EurasiaNet.org” asoschisi, “Qorong‘i soyalar: Qozog‘iston siri olami ichida” kitobi muallifi, “The Economist”, “Guardian”, “POLITICO” jurnallarida Markaziy Osiyo hayotini yoritishga ixtisoslashgan mustaqil jurnalist sifatida ishlab kelmoqda.

Uchrashuv davomida Joanna Lillis “Oltin qanot” jamoasiga katta qiziqish bildirib, ular amalga oshirayotgan loyihalarni kuzatib borayotganini alohida ta‘kidladi.

— Mazmunli muloqotdan juda mamnun bo‘ldik, — deydi “Oltin qanot” volontyorlar tashkiloti rahbari San‘atbek Muzaffarov. — Suhbat chog‘ida ilgari surilgan fikrlar, g‘oyalar, qolaversa, o‘rnatilgan hamkorlik aloqalaridan har ikkala tomon mamnun bo‘ldi, ayniqsa, biz katta motivatsiya oldik.

Komila HAMROYEVA

BU MENING BIRINCHI YUTUG‘IM!

Toshkent davlat yuridik universitetida “Yoshlar hayotida 5 muhim tashabbus” shiori ostida talabalar festivali bo‘lib o‘tdi.

Oldimga yangidan yangi maqsadlarni qo‘yishimga turtki bo‘ldi.

Festivalning yopilish marosimida so‘zga chiqqan universitetimiz rektori vazifasini vaqtincha bajaruvchi Islombek Rustambekov o‘zining yoshligidagi qiziqishlari haqida o‘rtoqlashdi. Ya‘ni u kishi yoshligida saksafon chalishga juda qiziqqani, ammo shug‘ullanish uchun yetarli darajada imkoniyat bo‘lmagani sababli orzulangacha qolib ketganini aytib o‘tdi. Va bugungi yoshlarga havas qilishini, ularning qiziqishlarini amalga oshirishi uchun barcha imkoniyatlar yetarli ekanligini ta‘kidladi.

Bugungi kunda isloh qilinmagan sohaning o‘zi yo‘q. Yoshlar uchun yaratib berilayotgan, ularning iqtidorini yuzaga chiqarishga qaratilgan dasturlar ham davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani biz kabi g‘ayrati jo‘sh urib turgan yoshlarga ayni muddao desam, to‘g‘ri bo‘ladi.

Malika ERALIYEVA,
Toshkent davlat yuridik
universiteti 2-bosqich talabasi



12 ta loyiha va tanlovdan iborat festival nafaqat sohaga doir, balki talabalarning alohida iqtidorini yuzaga chiqarishga imkon beradigan dasturlarni ham o‘z ichiga qamrab olgani diqqatga sazovordir. Masalan, “Talent shou”, “Yugurish” marafoni, “Men chizgan surat”, “Quvnoqlar va zukkolar”, “O‘z huquqingizni bilasizmi?” tanlovlari, “Ularga hayot tuhfa qil” donorlik xayriya aksiyasi, “Model United Nation” ijtimoiy-intellektual tanlovlari va boshqa loyihalar shular jumlasidandir.

Ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi loyihalar deyarli barcha yo‘nalishlarni qamrab olgan. Sport, san‘at, fan deysizmi, hammasi mavjud. Ya‘ni har bir talaba qiziqqan yo‘nalishida

o‘zini sinab ko‘rishi va bu orqali vaqtini mazmunli o‘tkazishi, qolaversa, madaniy hordiq olishi mumkin. Festival talabalarning yangi qirralarini kashf etish bilan birga, ularning iqtidorini munosib rag‘batlantirish uchun ham tashkil etilgan. G‘olib va sovrindorlar diplom va pul mukofotlari bilan taqdirlanishi, ularga kelgusidagi ishlari uchun katta motivatsiya bo‘ldi. Ularning ichida o‘zinning ham borligim men uchun katta baxt.

“O‘z huquqingizni bilasizmi” nomli viktorinada ishtirok etib, 1-o‘rinni qo‘lga kiritdim va bu talaba sifatida erishgan birinchi yuqori natijam bo‘ldi. Universitetimiz rahbariyati tomonidan berilgan diplom va esdalik sovg‘alari shijoatimga shijoat qo‘shdi.



YOSHLARNI BIRLASHTIRUVCHI MASKAN

BUNYODKORLIK

Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanida "Yangi O'zbekiston yoshlari markazi" foydalanishga topshirildi.

Mazkur majmua hudud-da yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni kasb-hunarga yo'naltirish, zamonaviy bilim egallashi uchun sharoit yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Barcha qulayliklarga ega konferensiyalar zalida viloyat yoshlari qizg'in debat, muzokaralar o'tkazishi mumkin. Xususan, bu yerda IT yo'nalishida "Ayollar daftari", "Temir daftari" ro'yxatida turuvchi oilalarning farzandlari

kompyuter texnologiyalari, dasturlash va flerensilik bo'yicha bilim olishadi. Shuningdek, xorijiy tillar, turli kasb-hunar bo'yicha o'quv kurslari tashkil etilgan. Hozirda mazkur maskanda 12 nafar yoshlar ish bilan ta'minlangan.

Markaz ichidagi zamonaviy kutubxonada badiiy adabiyotimizga oid turli kitoblar, mashhur adiblar asarlari, ilmiy-ommabop adabiyotlarni topishingiz mumkin.

Toshkent viloyatida ko'plab bunyodkorlik ishlari, xususan, yangi barpo etilgan inshootlar, ishlab chiqarish korxonalari, ijtimoiy soha ob'ektlari ochilmoqda. Jumladan, Yangiyo'l tumanida ham 2 ta yangi maktab binosi, 21 ta yangi mahalla fuqarolar yig'inlarining ma'muriy binolari, 4 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, 24 ta oilaviy bog'chalarning ochilishi aholiga yanada qulayliklar yaratmoqda.

Abdulaziz MUSAYEV,
O'zA muxbiri

21-oktabr — o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun

EHTIROM



TIL — MILLAT KO'ZGUSI

Har yili 21-oktabr yurtimizda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun sifatida keng nishonlanadi. Ulkan boylik, bebaho qadriyat sifatida e'zozlanadigan tilimizda xalqning bebaho merosi, tarixi, o'tmishi va buguni yashaydi. O'zligini anglagan har bir millat va elat uchun til bebaho va tengsiz boylik sanaladi.

Ona tilimizni har tomonlama rivojlantirish faoliyatimiz mezonini sanaladi va, albatta, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ham bu muhim omilga alohida ahamiyat qaratib kelmoqdamiz.

**Ulug' shoir aytganidek:
Tug'ilgan yurt menga Vatani,
Ona tilim jonimdir,
Til-u yurtidan ayrilsam gar,
Shu kun o'lgan onimdir.**

Darhaqiqat, inson til-u mil-latsiz, Vatanisiz yashay olmaydi. Bejiz til — millat ruhi, de-yilmaydi. Jahonda neki ulug' zotlar, shoir va allomalar bor-ki, o'z ona tilini ulug'lagan, o'z haqida asarlar bitgan, o'z ona tili nomini ona, Vatani nomlari bilan yonma-yon qo'yg'an.

Navoiy bobomiz "tilga e'tiborni elga e'tibor deya baholagan. Ona tilimizga e'tibor — xalqimizga e'tibordir. Bugungi kunda mamlakatimizda davlat tilining nufuzi va maqomini oshirish bo'yicha ezgu sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Vaqtli matbuotda olimlar, shoirlar, adiblar, madaniyat sohasi vakillari-

ning davlat tiliga oid mazmunli chiqishlarining guvohi bo'lyap-miz.

Til, adabiyot va ma'naviyatga e'tibor — bularning hammasi davlatimiz va xalqimizning faqat va faqat yuksalish mezonlarini belgilaydigan jihat hisoblanadi. Masalan, bugungi kunda bunyod etilgan Adiblar xiyobonidagi ulug' adib va shoirlarning siymolari ham xalqimizning yuksak ma'naviyatidan darak beradi.

"Har qanday millatning dunyoda borligini ko'rsatadug'on oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millat ruhini yo'qotmaktir", degan edi ulug' mutafakkir Abdulla Avloniy.

Tilimizni avaylash — ma'naviyatimizni avaylashdir. Biz, yosh avlodlar bu yo'lda bor kuch, imkoniyatimiz, sabotimiz va iqtidorimizni namoyon etamiz.


Yorqinoy ISLOMOVA,
Toshkent viloyati Chinoz tumanidagi 24-maktabning ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi

YAXSHIDAN BOG' QOLMOQ KERAK

IXTIRO

Namanganlik ixtirochi-innovator Muhammadjon Akramov novvoylar ishini yangillatib, xamir qorib, kesib, zuvala tayyorlab beradigan uskuna yaratdi.

Viloyat hokimligi axborot xizmati xabariga ko'ra, bu qurilmaga xitoy kompaniyalari ham qiziqmoqda.



— "Kelajak uchun sarmoyani bugundan, salohiyatingiz uchun tiking" — bu mening shiorim, — deydi ixtirochi Muhammadjon Akramov. — Har bir inson dunyoga kelar ekan o'zidan bir iz, yaxshi natija qoldirishi kerak. Buning uchun, avvalo, jamiyat uchun biror naf keltirish, og'irini yengil qilishga intilmoq kerak deb bilaman. Bunday amallarga har bir sohada ehtiyoj bor. Xususan, novvoychilikda ham. Shu maqsadda men ham yaxshi niyatlar qilib izlanishlar olib bormoqdaman. Maqsadim novvoylarning mehnatini oz bo'lsa-da yangillatish. Shu orqali qadbirkorlik bilan shug'ullanib, import hisobiga chetga chiqib ketayotgan valyutalarni yurtimizda olib qolish.

Mazkur ixtiro bitta novvoyxonada yetti kishining ishini bajaradi. Hozir qurilma Namangan shahrining "Zarbdor" va "Go'zal" dahalaridagi novvoyxonalarda ishlatilmoqda. U soatiga yetti yuzta zuvala tayyorlash quvvatiga ega.

Ixtirochining ma'lum qilishicha, qurilmani yaratish uchun yetti oy vaqt ketgan. Buning ustida yana ishlamoqda. Ixtiroga mualliflik huquqini patentlash jarayoni boshlangan.

Non mahsuloti kundalik ehtiyojimizning asosiy pog'onalarida turadi. Shu bois ham Muhammadjon novvoylik sohasida biror yangilik qilishni

uzoq vaqtlar davomida o'ylab yurdi va bugun o'z maqsadlari tomon ilk qadamini tashladi.

"Bir kunda mamlakatimizda sanoqsiz non va non mahsulotlari tayyorlanadi. Shuning uchun ham novvoychilikda avtomatlashtirilgan mexanizmlar zarur deb hisobladim. Qolaversa, avtomatlashgan tizimda sanitariya jihatidan talabga javob beradigan, har tomonlama pokiza mahsulot tayyorlashga erishishimiz mumkin", deya izoh berdi muallif o'zi yaratgan uskunasi.

Iqbol PARDAYEVA



IS'HOQXON IBRAT MAJMUASI

IBRAT – BIRINCHI MATBAACHI VA
MATBUOT FAOLI

Ehtiyoj — kishini harakatga keltiradi. Bizningcha, Is'hoqxon To'raning matbaachilikka jazm aylashi zamirida ham shu ichki kuch yotadi. Avvalo, o'zida odamlarning ma'naviy dunyosini ilm-u ma'rifat nuri bilan yoritish istagi azaldan tug'yonli edi. Qo'lyozma kitobchilik davri oxirlayotganini zukkolik bilan anglab yetoldi.

Yetuk xattotlarning kamligi, bori ham ming urinmasin, yiliga o'ntacha kitobni ko'chirish imkoniyatiga egaligi, bu ham aqliy, ham jismoniy qo'shaloq ishning sust maromi tez zamon talablariga javob berolmasligini o'z vaqtida payqadi.

Ayniqsa, mahallada yangicha maktab ochganida bolalarga kitoblar berolmagandir, o'zi yozgan qo'lyozma asari esa Toshkent bosmaxonalari ("Lug'ati sitta al-sina", 1898-yili tayyor edi) 1901-yilning oxiridagina bosilgandir. Mashaqqatli mehnati mahsulni yorug'likka chiqish uchun yillar mahtal yotgani unda iztirob qo'zg'amasdan qo'ymasdi. Qanday ishga jazm aylasa, albatta, o'shani uddalamaguncha harakatdan to'xtamaydigan fe'li Ibratni Namangan matbaachiligiga tamal toshi qo'yishiga olib keldi.

Tarix fanlari nomzodi Aziz Boboxonovning "Asrdan oshgan ziyo maskanlari" kitobidagi fikrlar juda asosli va dalillarga boy. Is'hoqxon Junaydullayev "Lug'ati sitta al-sina" nashridan keyin kitob nashri shaydosi bo'lib qoladi. U nashr ishlarini zimdan o'rganib, bosmaxona boshqaruvini qo'lga kiritishdan oldin ularning qaysi usuli va turini qishloq sharoitida ishlatish osonroq ko'chirishni shamalab ko'radi. So'ng Turkiston general-gubernatori mahkamasiga litografiya, ya'ni toshbosa ochish uchun iltimosnoma yozadi.

Biroq Sankt-Peterburgdan ruxsatnoma kelmaydi. Shunga qaramay, o'zbek ziyolisi shoir Ibrat o'zining navbatdagi asarini katta umid bilan nashrga tayyorlab boradi va asarning nashriga ruxsatnoma olish uchun kitob qo'lyozmasini Sankt-Peterburg senzoringing Bosh boshqarmasiga yo'llaydi. Is'hoqxon Junaydullayev tavakkal qilib, bosmaxona ochishga ruxsat olmasdan turib, 1907-yili Orenburgdan litografiya uskunalarini katta mablag' va mashaqqatlar evaziga oldin Qo'qonga poyezdda, Qo'qondan To'raqo'rg'onga tuyalarda yetkazadi.

1908-yilda o'zi qurdirdan hammom o'rni tashbosma matbaa tashkil qiladi va uni "Matbaai Is'hoqiya" nomi bilan 1909-yili ruxsatnoma olgan yildan ilgari, ya'ni Sankt-Peterburgning Bosh boshqarmasi senzori tomonidan 1908-yil boshiga ruxsat berilgan kitob — "San'ati Ibrat qalami Mirajab Bandi"ni chop etishdan o'z faoliyatini boshlaydi.

Ibratning o'zi bu haqda "Tarixi chopxonaga" g'azalida quyidagilarni bitgan:

**Ming uch yuz-u yigirma
oltida chopmaxona
Ochmoqg'a bo'ldi ruxsat va
so'z berib zamona.
Maqsad bu ishdan erdi
olamg'a ilm qasri,**

**Ham qo'yomqg'a asarlar
yodovari jahona.**

**Bizdin keyingilar ko'p
ilm-u hunar toparlar,
Hayfoki, anda biz yo'q,**

**yo'q e'timodxonona
Olamdin ushbu ona sonsiz
kishilar o'tdi,**

**Mingdin biri qo'yubdur
olamg'a bir nishona**

**Men katta boy emasdim
kim aylasam binoye,
Daxlim yetishmas erdi**

ro'zg'ori cho-yu nona.

Bundan ko'rinadiki, Ibrat o'z oldiga ezgu maqsadlar qo'ygan. Bu borada matbaachilikdan yaxshi xabardor bo'lgan Husayn Makayev Is'hoqxonga beminnat ko'maklashadi. Shunisi diqqatga sazovorki, Ibrat hatto o'z bosmaxonasi-ning muhri ham tayyorlatadi. Toshbosmada chop etilgan kitoblarning muqovasiga muhr tushirib borilgan. Uning ko'rinishi nur sochayotgan quyosh bo'lib, markazida ilm so'zi o'yib bitilgandi.

Albatta, shaxsiy kichik korxonaga tez orada kengaytirildi. Matbaachining butun diqqat-e'tibori millatiga ilm-ma'rifat tarqatadigan eng qimmatli, o'qishga oson, serma'no va tushunarli asarlarni chop etishga qaratildi. Mahalliy xalqning kitobga mehri oshdi. Natijada bu ishni avj oldirish uchun litografiya 1910-yili Namangan shahriga ko'chirildi. Matbaa mix va toshbosmaga aylandi. Ishlari yurishib ketgach, butun Turkiston miqyosida ma'lum-u mashhur bo'ldi. Katta hajmdagi asarlarga nashr qilishga kirishila boshlandi.

Matbaachilik sanoatning o'ziga xos turi. Uning mahsulotlarini muxlislariga yetkazish uchun alohida do'konlar ochish ham zarur edi. Shuning uchun bu masalaning ijobiy yechimiga erishishga astoydil bel bog'ladi.

Taniqli olim Ulug'bek Dolimovning keltirgan quyidagi dalillari Ibratning o'sha paytda matbaachilik ishi yildan yilga rivojlanganidan dalolat beradi: "Namangan matbaasi mahsulotining kun sayin ortib borishi shahar va qishloqlarda kitob do'konlari va bozorlarining bir muncha ko'payishiga sabab bo'ldi. 1910-yildan boshlab Namangan shahrida 13 ta, Chustda 2 ta, Popda 2 ta, Yangiqo'rg'onda 1 ta, To'raqo'rg'onda 1 ta kitob do'koni ochildi. Bu do'konlarda asosan, "Matbaai Is'hoqiya"da nashr qilingan kitoblar juda arzon narxlarda sotilar edi. Bu matbaada, asosan, ma'rifatparvarlikka oid risolalar nashr qilingan. Bu ishda asosiy tashabbusni Is'hoqxon Ibrat ko'rsatgan".

Hamyurtimiz matbaachilik bilangina kifoyalanib qolishni istamadi. 1913-yilga kelib, bosmaxona qoshida "At-tijor al-Namangan" nomli gazeta chop etishni niyat qiladi. Hatto mas'ul idoralarga ruxsat olish uchun murojaat qildi. Biroq o'sha paytdagi hukumat unga bu imkoniyatni bermadi.

Shunga qaramay, u ma'rifatchilikning boshqa yo'llaridan foydalanishga astoydil intildi. Ya'ni o'z uyida xalq uchun boy kutubxonaga tashkil etdi. Uning nomini "Kutubxonai Is'hoqiya" deya nomladi. Uzoq-yaqindan ta'lim-tarbiyaga oid eng nodir risolalarni izlab topib, o'quvga qo'ydi. Kutubxonaning fondi kundan kunga boyitildi.

Shaxsiy kutubxonasida o'zbek va fors-tojik ijodkorlarining mingdan ziyod qo'lyozma va bosma kitoblari jamlanganligi haqida ma'lumotlar bor. Birgina misol, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan Yusuf Xos Hojibning "Qutubg'u bilig" asarining Namangan nusxasi deb nom olgan nodir qo'lyozmasi ham Ibratning kutubxonasida bo'lgani bizga ma'lum.

— "Matbuot bilan matbaa egizak, bir-birizisiz nomukammal, matbaa korxonasi go'yo tandir, matbuot nashri esa unga yopiladigan xamirday gap", — deydi Sodiq Sayxun ikki sohani uzviy bog'liqlikda tasavvur etishimiz uchun muqoyasalab. — Xamirturushi joyida bo'lsa, xamir yaxshi qorilsa, sifatli non yasaladi, keyin shunga munosib ravishda o't qalangan, maromida qizitilgan, cho'g'li tandirga yopilsagina, biz kutgan mazali non uziladi undan. Shunga monand ravishda hayotiy va haqqoniy bitilgan, dizayni nigohtortar maqolalardan iborat gazeta yoki jurnal o'ziga yara-sha muxlislariga manzur mahsulotga aylashni bosmaxona bag'rida kechadi. Ibrat siyosida bir vaqtning o'zida har ikkisini birday qo'shib faoliyat yuritgan tashabbuskor va tashkilotchi inson gavdalanadi".

Ko'zga ko'ringan ma'rifatparvarlar qatorida turgan aqli zukko, qalbi qaynoq, zehni o'tkir, fikri teran Is'hoqxon to'ra nainki og'zaki so'z aytmog' bilan qanoat hosil qildi, o'lka minbari — "Turkiston viloyati gazetasi"ga dolzarb mavzularda maqolalar yozdi.

Vatan va millat taqdiriga beparvo qaramadi. Mudroq xalq ko'zini ilm-u ma'rifat bilan ochishni o'ylab, bu borada betinim qayg'urdi. Hatto chor hukumatining saylovlar siyosatiga islohotlar joziligini dangalaytishdan, gazetaga ro'y-rost yozishdan hadiksiramadi. U adolatli tartib-qoidalariga yoqlashini yashirmadi, e'tirozlar xalq manfaatlariga daxldorligi uchun shaxsiy halovatin orqaga surib qo'ydi.

Chunonchi, 1910-yili o'lkada qozilar saylovi e'lon qilindi. Gazeta mazkur masalani keng yoritishga mas'ulligidan foydalanib, mulohazali maqolalar yo'lladi.

O'sha davr matbuoti sahifalari bizga daliliy manba bo'la oladi.

"Polojeniya 223-bobida zikr qilingandurki, — deya yozadi "Turkiston viloyatining gazetasi" 1908-yilgi 56-sonida Ibrat — e'tibori bor, yetti kundan ziyoda hibs bo'lmagan o'tuz so'mdan ziyod ishtrab to'lamagan, yoshi yigirma beshdan past emas odam" qozi bo'lar ekan. Olim yo' o'mi, ahmoq yo' dono kishi, yo shariat biladurgan va yoki nizom biladurgan demagan... Ko'rasiz kimlarni (ng) qo'llariga bu katta shariat hukmini topshiradurlar. Fikr andisha qiladurgan kishi yo'q. Andisha qiladurgan odamni odam ham hisob qilmaydilar... Polojeniya bobig'a muvofiq ellikboshi degan kimgaki, shar ko'p tushsa, ani yozar ekan. Na qilsunlar, bu xil qilsalar polojeniya muvofiq. Polojeniya shariat biladurgan mulladan degan emas ekan... ularga kim va nima bo'lishi ham darkor emas ekan. Befikr o'tsang, ey do'st, muhtoji non o'lursan".

Yuqoridagi satrlarni o'qib gazeta nonini yeb tirikchilik o'tkazayotgan uncha-muncha jurnalistlarning qo'ldan bunday jur'at kelmasligi xayolimizdan o'tadi. Hukmron chor hukumati saylov qonun-qoidalarini o'zgartirish kerak, degan fikrni kinoyalarda matbuot orqali butun Turkiston viloyatiga yoyishga tobe yer farzandining haddi sig'gan.

Farg'ona davlatchiligi tarixida katta o'rin tutgan Axsikent xususida 1913-yilning yozida Toshkent arxeologiya jamiyati ilmiy munozara tashkil etadi. Tadbirga vodik vakillari safida Is'hoqxon to'raning taklif qilingani ayni muddao bo'ldi.

"Turkiston viloyatining gazetasi" dagi munozara uning maqolasi bilan boshlanganida ham ramziylikni uqishimiz qiyin emas. Boisi, Ibrat qadimgi Axsikentga yondosh qishloqning farzandi, yurtga taniqli shaxs, havaskor arxeologlarning beta'ma sardori edi. U ko'hna shahar xarobalarini o'rganish — yurtning kechasini ayon ko'rish bilan barobarligini chuqur idroklab, bu masalaga chor hukumatining, xalqning diqqat-e'tiborini tortishni istab, o'zi kitoblarida, ayniqsa, "Boburnoma"da o'qiganlari, odamlardan tinglanganlariga tayanib, Axi shahri to'g'risida g'oyat qiziqarli va ahamiyatli ma'lumotlarni keltiradi. O'lkamiz tarixini o'rganishga barchani undaydi.

Matbuot faoliga aylangan qalamkash 1911-yili Qo'qon — Namangan temir yo'lining qurilishi va ishga tushirilishi haqida maqola yozgan bo'lsa, 1912-yili 15-iyulda uning ishga tushirilishini o'lqishlab reportaj bitdi. Shuningdek, "Eski maktablar xususida", "Millatni kim isloh etar?", "To'raqo'rg'ondan maktub" singari maqolalari esa gazeta va "Oyna" jarisidasi yoritildi.

Birinchi matbaachi va faol matbuotchi sifatidagi xizmatlari keng o'rganishga va targ'ib etishga arziydi.

ВСТРЕЧИ С КУЛЬТУРОЙ

Белорусский культурный центр «Світанак» города Ташкента провел вечер, посвященный памяти поэтессы Нины Матяш, почетного жителя города Белоозерска Брестской области.

Пример Несломленного духа

Мероприятие состоялось на узбекско-белорусском факультете «Инновационная педагогика» Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами. На входе гостей встречали студентки в национальных белорусских костюмах.

Рассказывала о жизни и творчестве известного мастера слова председатель Белорусского культурного центра Светлана Дудюк. Это был не просто рассказ – продуманное повествование о сильной духом женщине, которую не сломила болезнь. Наоборот, тяжелый недуг был побежден проникновенными поэтическими образами, желанием полноценно жить и приносить людям пользу. Нина Матяш живет в своих пятнадцати стихотворных сборниках, переводах с французского, немецкого, испанского, польского языков, в сказках и пьесе, в своих крылатых картинах из птичьих перьев.

О том, что «мы в ответе за тех, кого приручили», белорусские читатели узнали именно благодаря Нине Матяш, она же подарила своему народу новеллы Мопассана и стихи Шиллера. Ее принципом было «перекладаць толькі блізкае па духу і творчай манеры». Произведения поэтессы переведены на двенадцать языков мира.

Выступление Светланы Николаевны, наполненное поэзией и музыкой, утверждало главную мысль: сильный человек всегда найдет себя в жизни, ограничение физических возможностей воплотится в мощью духа, как это произошло с Ниной Матяш. Сорок семь лет прикованная к инвалидному креслу, член Союза белорусских писателей сочиняла стихи и музыку, была удостоена звания «Заслуженный деятель искусств Республики Беларусь», стала лауреатом многих республиканских конкурсов, согревала всех, кому нужно было тепло огромного сердца. «Зоркой-белаазёркай» нарекли ее с легкой руки поэта, критика, журналиста Анатолия Вертинского. Приумножила в своем характере качества эрудированного отца-оптимиста и матери, которая прекрасно пела, танцевала и вышивала, была всегда ровна и приветлива и давала односельчанам мудрые советы. Королевой звали ее дочь. Королевой поэзии стала ее дочь, предостерегая своего читателя от душевной глухоты.



Боец по натуре, она предупреждала в стихотворении, которое в переводе на русский звучит так:
*Не делайте мне скидок.
Никогда. Ни в чем.*

Мы ждали своих выступлений с трепетом. Хотелось передать всю палитру чувств мужественной поэтессы. У таких людей, как Нина Матяш, нужно учиться ценить жизнь. Не могли без слез ни читать, ни слушать стихотворение «Кольбельная для мамы». Было интересно участвовать в мероприятии памяти человека, который произвел на нас ошеломляющее впечатление.

Галина ХАЛИЛОВА,
Валерия ОРЛОВА, 4-й курс

«АТМОСФЕРНОЕ» ВЛИЯНИЕ

Когда встречаешься с певцом или музыкантом, поневоле начинаешь представлять, сколько времени он уделял своим занятиям. Тем более если пишет песни. Сразу встают картины детства, где огромную часть времени «съедает» музыкалка, огранка дарования в консерватории...

Я И МУЗЫКА

У нашего героя получилось по-другому. Атмосфера звучащей красоты окутала его с рождения, потому что все в семье или любили музыку, или занимались ею. Отец, талантливый музыкант (окончил школу по классу фортепиано в городе Баку), когда супруга поделилась с ним соображениями, что сына следует учить нотной грамоте, среагировал весьма эмоционально: «Зачем ему эти мучения?»

Так мальчишка, ныне известный поклонникам как Артем Гордов, автор и исполнитель собственных песен, попал в секции плавания и большого тенниса. Спорт спортом, а от музыки, если она сопровождает тебя с первых дней, «никуда не спрячется, не скроется». Ведь у нее есть особенность покорять душу.

Родители занимались организацией концертов звезд зарубежной эстрады, театра и кино, а подросток в роли зрителя и закулисного наблюдателя растворялся в атмосфере волшебства. Слушал, смотрел, пытался импровизировать.

Вот и притянула Артема сцена.захотелось стать артистом. Юноша поделился мечтами с отцом – тот инициативу поддержал. Даже соседствовал, направив сына к композитору, продюсеру, звукорежиссеру Владимиру Барамыкову записать пару песен. «Если что получится,

поглядим», – напутствовал отец.

В студию Артем отправился с заинтересованным соратником: парень писал стихи, сочинял на них мелодии, а дядя, чью фонотеку племянник знал как свои пять пальцев, помогал с аранжировкой. Так родились две первые песни. Положительный опыт пробудил желание узнать тонкости музыкальной кухни. Со временем появилась и собственная студия, которая дала новый импульс развитию творчества.

В дипломе у автора современных композиций, работающего в разных направлениях (поп, поп-рок, хаус, баллады, соул), значится: «Актер. Артист эстрады». Артистичность инди-исполнителя, окончившего профильный вуз, говорит сама за себя: что называется, попал парень в яблочко, угадал свой путь. Экспериментирует, находится в постоянном поиске. Смена имени (Гордов – псевдоним Артема Газиянца) – очередная веха в творчестве. Новый проект – новые находки. И хотя прошедший этап принес достаточно побед и приятных моментов, творческого сотрудничества с известными артистами, на вчерашний день музыкант предпочитает не оглядываться. То, что было, то ушло. И старый багаж тоже. Надо расчищать дорогу для другого автора, который работает в проекте

«Артем Гордов» и снова ищет свою аудиторию.

«Мне не надо много слов», – написал он в тексте одной из песен. И пусть она прозвучала применительно к конкретному сюжету, но в данный

момент определяют позицию творческого человека: «Дайте мне время – придут другие песни. И, независимо от возраста, среди них слушатель отыщет свою».

Артем признается: «Когда стал создавать авторские композиции и заниматься музыкальным продакшном, понял, что не хватает той самой школы, от которой в свое время пытался уберечь отца. Однако никогда не поздно что-то начинать, поэтому я в непрерывном процессе обучения. Слова и мелодии приходят спонтанно. Наверное, слушал много хороших исполнителей, которые меня вдохновляют».

Так как мы встретились с композитором и исполнителем песен собственного сочинения в Международный день музыки (с 1975 года отмечается 1 октября), то и разговор наш шел об этом виде искусства вообще и его роли в жизни человека.

Имея изрядный опыт за плечами, Артем не дает безапелляционных рекомендаций, как и какие композиции стоит слушать молодежи, не превозносит одну только классику. В его даже не совете, а рассуждении звучит мысль: «У каждой жизни есть мелодия одна», и находит ее слушатель самостоятельно. Да, можно направлять, но диктовать в музыкальных пристрастиях – неблагодарное дело.

– Классика – прародитель всех современных направлений, – отмечает наш собеседник. – Не буду лукавить, что слушаю ее по утрам и вечерам. Для нее характерно определенное состояние души. Это – музыка-праздник, музыка-торжество.

Каких авторов, исполнителей слушать? Разных. Свои поклонники и ценители есть у каждого стиля, иначе бы они не возникли и не развивались. Как и любой вид искусства, музыка не может существовать только в застывших

традициях. Ей, как и всему миру, нужно движение. Ведь она отражает жизнь.

Музыка звезда. Она – волшебство. И это волшебство доступно повсеместно с помощью технологий. Не прикоснуться к ней может разве что самый ленивый человек, не умеющий слышать и чувствовать, абстрагирующийся от красоты и живущий в узком мире материальных потребностей. Посмотрим на динамику вседоступности. К чему она приведет?

– Искусство способно воздействовать на формирование творческой личности, – продолжает создатель современных композиций, – побуждать к нравственно-эстетическим переживаниям, вести к восприятию и преобразованию окружающего мира, к активному мышлению. Так же, как художественная литература, театр, живопись, музыка выполняет важнейшую социальную функцию. Любому человеку с детства необходимо давать возможность прикоснуться к ней, однако не навязывать, а внедрять естественным образом. Воспитывая потребность в звучащей красоте.

Место музыки в своей жизни артист давно определил, полностью посвятив себя ее созданию. Убежден: «Любому делу надо отдаваться с головой». Среди огромного количества песен в популярной выбирает те, которые соответствуют настроению, получают отклик в душе. Есть такие, которые звучат в унисон с конкретной ситуацией и сопровождают в определенное время, и есть те, которые навсегда. Это так называемый «золотой каталог», остающийся неизменным.

Так пожелаем Артему Гордову, чтобы его песни стали чьим-то «золотым каталогом».

Ольга ВОЛОДИНА



JOZIBADOR G'UYALAR

ularning mustahkam asosi ham bo'lishi lozim

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Agar amaldagi chegaraviy bazaviy miqdor bekor qilinadigan bo'lsa, 352 200 kishiga to'lanadigan pensiya miqdori sezilarli darajada oshishi aniq. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizning byudjetiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Dasturning soliqlar bilan bog'liq yo'nalishi ham e'tiborga molik. Jumladan, unda soliqqa tortishning progressiv stavkalarini o'rnatish orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni moddiy qo'llash taklif etilmoqda. Ijtimoiy tenglikni o'rnatish maqsadini ko'zlagan bo'lsa-da, ushbu taklif xufiyona iqtisodiyotning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchisi, maxsus jamg'armalarni bekor qilish orqali davlat byudjetiga tushumlarni ko'paytirish taklifi.

Ma'lumotlarga e'tibor qaradigan bo'lsak, 2021-yil uchun tasdiqlangan davlat umumiy byudjet xarajatlarining davlat maqsadli jamg'armalari uchun 40,8 trillion so'm miqdorida mablag' ajratilgan. Bu umumiy xarajatlarning miqdorining 19 foizini tashkil qiladi. Qayd etish kerakki, davlat tashkilotlarining turli xil jamg'armalarini bekor qilishga aniq asos yuq, chunki ularning barcha daromadlari va xarajatlari shaffof tarzda jamoatchilikka taqdim etib boriladi.

Ekologik partiyadan nomzod Narzullo Oblomurodovning saylovoldi dasturida tejamkor sug'orish texnologiyalarini keng joriy etish orqali asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hosildorligini o'rtacha 25-30 foizgacha oshirish bo'yicha taklif

ilgari surilgan. Bir qarashda ahamiyatli taklif. Ammo qishloq xo'jaligida tejamkor texnologiyalarni joriy qilish hosildorlikni oshirish uchun yetarli emas. Bundan tashqari, pirovard maqsad qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirish emas, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'lishi lozim. Birgina misol, joriy yilda piyoz narxining keskin qulashi natijasida hosilni yig'ishtirib olish xarajatlari piyozning bozor narxidan oshib ketgani sababli Surxondaryodagi ba'zi dehqonlar hosilini shudgorlab yubordi.

Shuningdek, nomzod global rivojlanish sharoitida vujudga kelgan chiqindi muammolarini samarali hal etish uchun maishiy chiqindilarni qayta ishlash hajmini 40 foizga, hosil bo'layotgan sanoat chiqindilarini qayta ishlash miqdorini esa 20 foizga yetkazish taklifini ilgari surmoqda.

Ahamiyatli taklif. 2020-yilda maishiy chiqindi hajmi yiliga 7 million tonnadan ziyod bo'lib, uning 19 foizi qayta ishlangan. Maishiy chiqindini qayta ishlash darajasini 40 foizga yetkazish qaysi muddalarda erishiladigan ko'rsatkich va mazkur ko'rsatkichlarga qanday mexanizmlar orqali erishiladi, degan savol ochiq qolmoqda.

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi nomzodi esa, o'z saylovoldi dasturida ishchi xodimlarning ijtimoiy muhofazasi ta'minlanishi, mehnat shartnomasida xodimning sog'lig'idan tortib, ijtimoiy talablariga qayta barcha holatlar kafolatlanishi taklifini bildiradi. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida xodimlarning manfaatlari va ish beru-

chining barcha majburiyatlari belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, nomzod kam ta'minlangan aholini qo'llab-quvvatlashning qadriyatlariga tayangan yangi tizimni joriy qilish, ehtiyojmand kishilarni ish bilan ta'minlagan tadbirkorlarga soliq imtiyozlari berish tartibi qonun bilan belgilanishi haqida ham mulohazali taklifni ilgari surmoqda.

aholining daromadiga qarab, tabaqalashtirilgan soliq solish tizimini joriy etish taklif etilmoqda.

Bu ham ahamiyatga molik bo'lmagan taklif. Negaki, yuqori soliq yuki va soliq tizimining murakkabligi norasmiy sektor paydo bo'lishining asosiy sabablaridan hisoblanadi. Shu munosabat bilan 2019-yili joriy etilgan yangi

asosan rivojlangan va norasmiy sektor ulushi past bo'lgan davlatlarda qo'llaniladi. Boshqacha aytganda, tabaqalashtirilgan soliq tizimini qaytarish norasmiy sektorni yanada kuchaytirishga va davlat byudjeti daromadlarining pasayishiga olib keladi.

Nomzodning yana bir taklifi ijtimoiy nafaqalardan yuqoriroq mehnat haqi to'lanadigan barqaror ish o'rinlari bilan ta'minlash masalasi bilan bog'liq. Juda ahamiyatli va dolzarb masala. Chunki ish o'rinlarini yaratish juda muhim. Biroq asosiy masala mazkur ish o'rinlari qayerda, qaysi sohada, nimaning hisobiga yaratiladi? Qancha ish o'rinlari yaratiladi?..

Yana bir taklifda o'rtacha muddatli istiqbolda kam ta'minlangan aholi qatlamlari ulushini kamida 2 baravar qisqartirish masalasi ko'tariladi. Ammo XDPning mazkur rejani qanday amalga oshirish bo'yicha aniq hisob-kitobi keltirilmagan. Misol uchun Liberal demokratik partiyaning dasturida ham kambag'allikni 2 baravarga qisqartirish vazifasi qo'yilgan bo'lib, buning uchun kelgusi 5 yilda jon boshiga to'g'ri keluvchi YIM miqdorini 1,6 baravarga ko'paytirish hisobiga erishmoqchi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida sanab o'tilgan 4 ta partiya iqtisodiy masalalarni hal qilishda ko'proq davlat byudjetiga tayanib qolmoqda. Shuningdek, taklif etilayotgan iqtisodiy yechimlar aniq mexanizmlarga ega emas.

Qo'ng'iratboy SHARIPOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori

24 OKTABR 2021-YIL **O'ZBEKISTON PREZIDENTI SAYLOVI**

YANA BIR TAKLIFDA O'RTA MUDDATLI ISTIQBOLDA KAM TA'MINLANGAN AHOI QATLAMLARI ULUSHINI KAMIDA 2 BARAVAR QISQARTIRISH MASALASI KO'TARILADI. AMMO XDPNING MAZKUR REJANI QANDAY AMALGA OSHIRISH BO'YICHA ANIQ HISOB-KITABI KELTIRILMAGAN. MISOL UCHUN LIBERAL DEMOKRATIK PARTIYANING DASTURIDA HAM KAMBAG'ALLIKNI 2 BARAVARGA QISQARTIRISH VAZIFASI QO'YILGAN BO'LIB, BUNING UCHUN KELGUSI 5 YILDA JON BOSHIGA TO'G'RI KELUVCHI YIM MIQDORINI 1,6 BARAVARGA KO'PAYTIRISH HISOBIGA ERISHMOQCHI.

Kambag'allikka qarshi kurashish uzoq va murakkab jarayon bo'lib, u institutsional va tizimli yondashuvni taqozo etadi. Kambag'allikka qarshi faqat ehson, xayriya, homiylik orqali kurashilmaydi. Ijtimoiy himoya tizimida davlat doimo asosiy kafolatlangan qismini amalga oshirishi lozim. Xayriya va ehson uning ustiga qo'shimcha ravishda amalga oshirilishi lozim.

Xalq demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko'rsatilgan nomzod saylovoldi dasturining iqtisodiy yo'nalishida

soliq tizimi orqali mehnatga soliq yuki yengillashtirildi. Bir qator majburiy to'lovlar va jismoniy shaxslarning 4 shkalali daromad solig'i stavkalari o'rniga yagona 12 foizlik stavka belgilandi. Natijada soliq yuki kamayib, mazkur soliq turi bo'yicha byudjetga to'lovlar hajmi ortib bormoqda. Masalan, 2018-yilga qadar daromad solig'idan byudjetga tushumlar miqdori YIMga nisbatan o'rtacha 2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-2021-yillarda bu ko'rsatkich 2,6 foizga yetgan. Bundan tashqari, tabaqalashtirilgan soliq tizimi

HAYOTIMIZDA REAL O'ZGARISHLAR BOR

Saylov arafasida ijtimoiy tarmoqlarda yurtdoshlarimizning, jumladan, yoshlarimizning fikrini chalg'itishga qaratilgan turli postlar, video va audioroliklar aylanmoqda. Bunday g'oyaviy tahdidlarga hamma o'z fikrini, pozitsiyasini bildiriyapti, ammo oramizda ularga xayrixohlar ham yo'q deb bo'lmaydi.

"Bizning birovlardan ustunligimiz muhimmas, kechagi holimizdan ustunligimiz muhim", degan gap bor. Darhaqiqat, keyingi yillarda oddiy turmush tarzimizda, oilaviy sharoit, ro'zg'orimizda real ijobiy o'zgarishlar bo'lganini hech kim inkor etolmaydi.

Bir vaqtlar plastik kartochkani naqd pul qilish ilinjida uqur-bunga iltimos qilish, naqdlashtirib bergan odamga yurakni yulgandek qilib, ma'lum foizini qoldirish

kabi holatlar bugun tushga aylandi.

Shunday paytlar bo'ldiki, yaqinda bayramini nishonlagan o'qituvchi-muallimlarimiz qishloqlarda maoshining ma'lum foizi "naqdlashtiradigan" joyga, ma'lum foizini tuman markaziga borib, naqd qildirib kelib beradigan odamning cho'ntagiga kirishiga ko'nikib qolishgan edi.

Poytaxtda propiska yo'qligidan turar-joyida minglab yoshlarimiz "uchastka-

voy"lar bilan it-mushuk bo'lib, ishlayotgan joyidan ayribil qolmasligi uchun yurak hovuchlab yashardi, bitta muhning yo'qligi dastidan poytaxtda yashash va ishlash orzusidan voz kechib ketgan hamyurtlarimiz qancha edi.

Yaqinlarining operatsiyasi uchun xorijga olib borishga banklardan xorijiy valyuta olo olmay, sarson-sargardon bo'lgan insonlarning guvohi bo'lganmiz.

Ming shukrki, bugun insonning izzat-nafsini toptaydigan bunday holatlarga barham berildi. Ammo ba'zilarimiz hayotimizdagi bunday o'zgarishlarni unutilib, yangi-yangi ehtiyojlarimizni qondirish ilinjida dod solayotgandekmiz.

Bugun shifokorning qizi, chorvadorning o'g'li, fermerning, prokurorning bolasi ham bilimi bo'lsa, oliy o'quv yurtiga teppa-teng o'qishga qabul qilinaypti, ta'limdagi bu o'zgarishlar qanchadan-qancha oilalarimizga quvonch, kelajakka ishonch bag'ishladi.

Xullas, kechagi kunimizdan xulosa chiqarib, ertamiz uchun rejalar qilib yashashdan charamaylik. Ulug' adibimiz Maqsud Shayxzoda hol-ahvol so'rab kelgan shogirdlariga "Ahvolim kechagidan yaxshi, ertagidan yomon", deb javob berarkan. Shayxzoda domla lutf qilganlaridek, hayotimiz kechagidan yaxshi, ertagidan yomon bo'layotgani rost bo'lsin!

Nurali SHODIYEV,
Davlat boshqaruvi akademiyasi dotsenti, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa (PhD) doktori



Bizni xursand qiladigan jihat, bugungi odamlarimiz siyosiy jarayonlarning mas'uliyatini chuqur his etadigan, jamiyatimizdagi tinchlik va barqarorlikning shukronasini qilib, uni mustahkamlash yo'lidagi bel bog'lab mehnat qilayotgan bag'rikeng, sabr-toqatli, mulohazali insonlardir.



Chunonchi, nomzodlarning saylovoldi dasturlarida bandlik, narxlar o'sishi, minimal oylik ish haqi, ta'lim,

SAYLOVOLDI DASTURIDA ASOSIY URG'U NIMAGA QARATILGAN?

Saylov kampaniyasida ishtirok etayotgan siyosiy partiyalarning saylovoldi dasturlarini birlamchi o'rganish barcha partiyalar ilgari surayotgan g'oyalari va shiorlarda asosiy urg'u ijtimoiy hamda iqtisodiy masalalarga qaratilganini ko'rsatadi.

sog'liqni saqlash, korrupsiya va shu kabi masalalar markaziy o'rinni egallamoqda. Umuman olganda, bunday yondashuv saylovchi uchun eng to'g'ri hisoblanadi. Shu bilan birga, siyosiy partiya tomonidan taqdim etilayotgan saylovoldi dasturida imkon qadar barcha sohalarni qamrab olgan rejalar va vazifalar bo'lishi maqsadga muvofiq.

Afsuski, biz barcha siyosiy partiyalar saylovoldi dasturida bunga to'liq erishilganini ko'rolmadik. Masalan, "Adolat" SDP saylovoldi dasturida davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlashni rivojlantirishda, korrupsiyaga qarshi kurashishda ilmiy yondashuvni qo'llab-quvvatlagan bo'lsa-da, xalqimizga eng yaqin bo'lgan "Mahal-

la"ga e'tibor chetda qolib ketgan. Xuddi shunday, aholi o'rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni kuchaytirish ishlari ham saylovoldi dasturining e'tibor markazida emas. Vaholanki, partiya tomonidan ilgari surilayotgan "Ijtimoiy adolat" shiori fuqarolardan aynan kuchli huquqiy ong va huquqiy madaniyatni talab etadi.

Gulnoza SATTOROVA,
Oliy Majlis huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti bo'lim boshlig'i

"IPAK YO'LI DURDONASI" — do'stlik va hamjihatlikka ochilgan eshik




Poytaxtimizda 28-sentabr — 3-oktabr kunlari "Ipak yo'li durdonasi" XIII Toshkent xalqaro kinofestivali bo'lib o'tdi.

Festivalga xorijiy mamlakatlardan 400 nafar yaqin taniqli kinoijodkor tashrif buyurdi. Toshkent xalqaro kinofestivalining yopilish marosimida

festival ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga murojaat yo'lladi. Murojaatda ishtirokchilar mamlakatimiz rahbariga ushbu afsonaviy kinofestivalning qayta tiklangani munosabati bilan minnatdorlik bildirdi. Shuningdek, Toshkent xalqaro kinofestivalining

yirik xalqaro ijodiy loyiha sifatida qaytadan tiklanishi milliy san'atimizni yanada rivojlantirish, uni bir necha pog'ona yuksaklarga olib chiqish, bir paytlar jahonda shuhrat qozongan o'zbek kino san'atining qaddini qayta rostlash uchun muhim amaliy qadam ekanini qayta-qayta ta'kidladi.

Franko NERO,
aktyor va produser
(Italiya):




— O'zbekiston haqida tasavvurlarim deyarli yo'q edi. Biroq shu bir-ikki kun ichida ancha narsani bilib oldim. O'zbekiston juda mehmondo'st yurt ekan. Har bir odamning yuzida tabassum zohir. Ular bilan suhbatlashib, tashvishingiz bir zumda unutiladi-qoladi.

Bolaligidan kino sohasiga ixlos qo'yganim. Musiqani ham jon-dilimdan yaxshi ko'rar, hamisha buyuk va taniqli aktyorlar, xonandalarga havas qilardim. Yashayotgan joyimdan Rimga ko'chib o'tgach, bu soha bilan shug'ullanishga jiddiy kirishganman. Kino sohasidagi ilk kasbimni fotograflikdan boshlagandim. O'sha paytlarda hayotimda tub buriqish yasa-gan voqea kinorejissor Jon Xuyston bilan tanishganim bo'lgandi. U menga birinchilardan bo'lib suratga olayotgan filmida rol taklif qilgan. Undan ko'plab kasbiy mahorat sirlarini o'rganganman. U menga Shekspiri o'qishim kerakligini, o'ynagan rollarim shunchaki rol emas, bir inson hayoti, qismati

bilan bog'liq ekanini uqtirardi. Mashaqqatlar, zahmatlar olovda pishib yetildim. Aktyorlik kasbini tanlaganimdan hech qachon afsuslanmaganman, afsuslanmayman ham. O'ylaymanki, o'z ijrolarim bilan odamlarga nimadir bera oldim.

Bu festival menga yoshlik kuchini qaytarib berdi, desam, mubolag'a emas. Yurtingizda, garchi tilni tushunmasam-da, xushchaqchaq odamlar orasida o'zimni yigirma yashar yigitday sezyapman. Agar festival har yili o'tkazilsa, albatta, har yili o'z ixtiyorim bilan kelgan bo'lardim.

Nuri Bilga JAYLON,
rejissor va produser
(Turkiya):



— Kino insonlarni o'ylantirishi, qayg'u solishi, baxtli qilishi, kuldirishi, yig'latishi, unga nimanidir tushuntirib qo'yishi mumkin. Men, albatta, haqiqiy san'at haqida gapiryapman.

Hozirgi dunyo kino muxlis-lari uchun ta'sir doirasi keng filmlar yaratish kerak, nazarimda. Kino — insonlar-ga naf keltirsa, ularni ma'nan boyitsa, o'z vazifasini bajar-gan hisoblanadi.

O'zbekistonga ilk marotaba kelishim. Taassurotlarim bir

olam. Matbuot anjumanlarida qatnashgan paytimda o'zbek kino muxlislarining savollaridan men suratga olgan filmlar-ni ko'rgan, bilgan odamlar ko'p ekanidan boshim osmon-ga yetdi.

Festival do'stlik rishtalarini mustahkamlamoqda. Bu yer-da ekanimdan, qardoshlarimiz bilan diydorlashganimdan, ayniqsa, mehmondo'stlikdan, e'tibordan juda mamnunman. Men ko'plab o'zbek allomalari, mutafakkirlari haqida o'qigan va o'rganganman. Jumladan, Alisher Navoiy, Beruniy, Ibn Sino, Jaloliddin Manguberdi kabi tarixiy shaxslarga hurmatim baland. O'zbekistonda film suratga olish niyatidaman, qachondir shunday imkoniyat tug'ilguday bo'lsa, bu asar, albatta, yuqorida sanab o'tilgan shaxslar haqida bo'ladi.

Filip KIRKOROV,
xonanda (Rossiya):

— O'zbekistonga ko'p bor tashrif buyurganman. Bola-likdagi eng sevimli filmlarim aynan o'zbek filmlari bo'lgan.



O'ziga xos milliylik ufurib turadigan bu kartinalar hali hamon o'n daqiqada avval ko'ril-

gandek xotiramda turibdi. Bir qator tarixiy kinolar, serialarni ham yaxshi ko'rib tomosha qil-ganman. Shundan so'ng, Samarqand, Xiva, Buxoro kabi nafaqat o'z davrining, balki har zamonning buyuk sha-harlarini ko'rishga oshiqqan-man. Har safar O'zbekistonga kelganimda, shulardan bittasi-ni bo'lsa-da ziyorat qilib keta-man.

Kinoga aloqam bo'lmasa ham kinematografiya sohasini juda yaxshi ko'raman, prod-yuserlar, rejissorlar, aktyorlar, umuman olganda, barcha kino ijodkor ahliga hurmatim chek-siz. Toshkent xalqaro kinofes-tivalida ishtirok etish men uchun o'zgacha hodisa bo'ldi. O'ylashimcha, festival bejiz "Ipak yo'li durdonasi" deya nomlanmagan. Buyuk Ipak yo'li haqida ko'p eshitganman, ko'p o'qiganman. Bu yo'l orqali o'z zamonasida mamlakatlari bir-biri bilan do'stona aloqa o'rnatgan, albatta, bu do'stlik har bir sohada bo'lgani shubhasiz. Bugun ham u o'z nomiga sodiq qolib, o'zbekistonlik do'stlarim qatorini yanada kengaytirdi. Bir mening emas, xorijlik har bir ijodkorning "do'stlik ro'yxati" uzaydi.

Jerar DEPARDE,
aktyor (Fransiya):

— O'zbekistonga tez-tez taklif qilishadi, biror marta rad qilmaganman. Bu safar esa Toshkent xalqaro kinofes-tivaliga faxriy mehmon sifatida taklif qilindim. Oila a'zolarim ham yurtimizga kelishga oshiqqapti. Nasib qilsa, ular ham biror kun mehmoningiz bo'ladi. Ularga har safar qayt-ganimda mamlakatingiz haqi-da gapirsam, darrov qanot

chiqarishadi. O'zbekiston — bir marta kelgan odamni ikkin-chi, uchinchi, o'ninchi marta o'ziga tortadigan yurt.



Rejissor qadrdonim Arno Friyel "Mening o'zbekcha tushim" nomli kartinasida rol ijro qilish uchun da'vat etdi. Rozi bo'ldim. Bu rol orqali O'zbekistonga, unda kecha-yotgan yangilanish jarayon-lari, an'ana va qadriyatlar, o'zbek madaniyatiga xorijliklar qanday nigoh bilan qarashini gavdalandirganman.

Film jarayonida O'zbekis-tonning turli mintaqalari, viloyat va shaharlarida bo'ldim. Bebaho me'moriy obidalar, bozorlar, ko'hna shahristonlar-ni kezdirdim. Bu yurtning har bir hududida uning o'zigagina xos bo'lgan madaniyati bilan tanishganim ham quvonarli hol bo'ldi.

Festivallar, tadbirlar o'z yo'li-ga, o'zbekona lutfni, bir piyola choy ustida suhbatlarni sog'in-gandik. Nihoyat mana shu festi-val bu imkoniyatni bizga taqdim etdi. Tadbir tashkilotchilariga minnatdorlik izhor etaman.

Rahmatjon BOBOJONOV
yozib oldi.



Было бы странно, если бы в череде всемирных праздников для него не нашлось особого дня. Всемирный день хлеба отмечается 16 октября, чтобы напомнить человечеству о должном уважении к главному продукту питания, безотходному его потреблению.

«Всему голова!» – говорят о нем в народе с давних пор. Вот только отношение с развитием цивилизации несколько поменялось: кто-то воспринимает десятки разновидностей хлеба как раз и навсегда данное явление, придирчиво критикует изобилие на полках магазинов, выбирает долго, с недовольным видом...

СЛОВО О ХЛЕБЕ

Сейчас все реже встретишь пожилого человека, со слезами застывшего у богатой витрины, пахнувшей свежеспеченным хлебом. Что такое голод, можно узнать разве что из документальных хроник и произведений художественной литературы. Очевидцев дней, когда человека спасал крохотный кусочек хлеба, практически не осталось. И уже морщатся домочадцы, когда им предлагают вечернюю буханку или затвердевшую лепешку, хотя они гораздо полезнее для здоровья, чем только что вынутые из печи. И семьи разделяются по хлебным предпочтениям: бабушка ест отрубной, дедушка – гречневый, отец – бородинский, мать – татыр, а детям подавай тосты.

ПОВИД ЗА КОЛОЧЕЙ ПРОВОЛОКОЙ

Благоговейное отношение к хлебу, испокон веков присущее узбекскому народу, отражено в поэме об узниках концлагеря времен Второй мировой. Тогда в голландском лагере «Амерсфорт» задумали бесчеловечную акцию. Пленных узбеков довели до изнеможения и хотели показать, как они будут рвать друг друга на части из-за куска хлеба. Специально для этой пропагандистской акции были привезены одетые с иголочки военнотруженицы-арийцы, высокие, спортивного телосложения. Авторам идеи

нужен был контраст для поднятия духа войск и устрашения побежденных стран.

Наших земляков держали за колочей проволокой под открытым небом. Туда бросили булку свежеспеченного хлеба и стали ждать свары. Ничего подобного не случилось. Младший взял хлеб, бережно отряхнул его, поцеловал, поднес к глазам и передал старшему. Изможденные пленные сели – священная пища с молитвой пошла по кругу. И ни единого порывистого движения, чтобы выхватить кусок из чьих-то рук. Изголодавшиеся люди терпеливо ждали своей крохи, ели с огромным почтением. Кино не получилось.

За такое поведение узники лагеря подверглись еще большим истязаниям, а потом были расстреляны. Так хлеб стал проверкой силы человеческого духа, во имя его свершился подвиг, о котором узнал весь мир.

ЗАПАХ СЧАСТЬЯ

Совсем недавно начал работать мини-цех в одном из домов на 19-м квартале Юнусабадского района столицы. Проходя мимо, поневоле задерживаешься и полной грудью вдыхаешь божественный запах. Так пахнет только хлеб – миром, покоем, счастьем.

Священнодействует среди современного оборудования молодой предприниматель

Матлуба Абраева. Женщина наконец нашла себя. Любимая работа на расстоянии восьми этажей: спустился – и уже на месте. Школа детей – в нескольких шагах от дома. О таком можно только мечтать!

– Всегда искала такую работу, параллельно которой можно будет приглядывать за дочерью и сыном, провожать их в школу и встречать, вовремя кормить свежереприготовленным обедом, – говорит хлебных дел мастер. – Благодаря руководству нашего государства

ли, нацеленные именно на этот товар, знают: вкусный хлеб едет.

Матлуба рассказывает, что с детства любила печь пироги и булочки. Мама всегда учила ее, как правильно замешивать и разделять тесто. Потом обучение продолжила ойжон, свекровь Адолат-опа, женщина совершенствовалась в хлебопекарной сфере. Ее часто просили испечь что-нибудь на свадьбу. Однако хлебный цех – это другое. Приглашали технолога, чтобы с точки зрения науки соблюдать все тонкости выпечки.

моном. Работа в пекарне кипит всю ночь, чтобы утром в двадцати магазинах появились хлебобулочные изделия на любой вкус. Развозит ее в разные районы столицы 26-летний предприниматель Мурод Гафуржонов. Три месяца назад он потерял работу из-за повышения арендной платы помещения, где трудился вместе с родственниками. Нужно было срочно куда-то перевезти оборудование и снова запустить производство. Большая семья фактически лишилась источника дохода.

САМАЯ

Соседи наблюдали за Матлубой с интересом. Мало кто верил, что из нее получится предприниматель. Теперь забыли дорогу в магазины, где раньше покупали хлеб. Родной вкуснее! Кстати, выпекается из муки отечественного производства. Кое-кто из приятельниц представил истинное резюме: «Раскрутишься – будем у тебя работать».

Новый объект – это всегда новые рабочие места, возможность обучить других. Пока у Матлубы только один помощник, но скоро потребность в рабочих руках возрастет.

НА ЛЮБОЙ ВКУС

В нескольких метрах от цеха Матлубы Абраевой расположен небольшой моноцентр «Ишга мархамат» махалли



«Шоштепа». Швейная мастерская соседствует с пекарней, на дверях которой объявление: «Приглашаем на обучение». На стеллажах разнообразная продукция: освоен выпуск 17 наименований, и это не предел. Молочные и сладкие, кукурузные и ржаные батончики, французские багеты, черны и отрубной хлеб, булки для хотдогов и гамбургеров... Пахнет пряностями: тмином, корицей, кориандром, карда-

Молодой пекарь с благодарностью вспоминает, с каким вниманием к его проблеме отнесся аксакал:

– Я тогда бродил по территории квартала, не зная, куда девать вещи, пока мы сможем взять какое-нибудь помещение в аренду. Даже в школу обратился с просьбой где-нибудь разместить на время наше оборудование. Как раз Алишер-ака делал обход махалли. Он мне сказал: «Около школы швейская фирма Gold Step Invest построила моноцентр для таких, как ты. Молодых предпринимателей поддерживает государство. Пеки свой хлеб, зарабатывай, передавай знания другим». Нам место понравилось. Чувствуем себя комфортно. Взяли кредит по льготной процентной ставке.

Учеников беру с удовольствием. Сам научился у устоза Бахтияра-ака Каюмова (он, кстати, постоянно заходит помочь, направить) – надо учить других. На летних каникулах проводили занятия для старшеклассников. Кто бы ни обратился – никому не откажем.

Нереализованной продукции почти никогда не остается. Если же такое случается, из нее делают кириешки, сухари к чаю или панировочные. Хлебу пропасть здесь не дадут.

УЧИТЫВАЯ ПОЖЕЛАНИЯ НАСЕЛЕНИЯ

Отправляемся в махаллинский комитет. Уж очень захотелось познакомиться с Алишером Гаиратовичем, оказавшим действенную помощь предпринимателям, и услышать его мнение о «хлебных драйверах» махалли «Шоштепа».

Беседуем в уютном кабинете. Поймав оценивающий взгляд, бывший строитель Алишер Юнусов поясняет:

– Красиво? Так все же для людей. Чтобы себя как дома чувствовали. И пекарни для них.

И предпринимателей поддержим, которые обеспечат рабочие места и выучку, и жителям удобно. Скажем, захочет похилой человек прогуляться за хлебом, а ему через весь квартал идти. Да еще дорогу переходить. А это внутри. Причем выбор богатый. И всегда свежая продукция.

«Ташкент – город хлебный» – этот афоризм известен всем. И бережное отношение к главному продукту, присутствующее узбекскому народу, надо культивировать у подрастающего поколения

ние, беседовали с жителями дома, как более эффективно использовать площадь для повышения благосостояния махалли. На собрании они высказались категорично: «Чужим не отдадим!» Матлубе Абраевой надоело быть домохозяйкой, захотелось попробовать себя в бизнесе. Наше дело – помочь, проконтролировать.

Мурода знаю давно. Вижу, как он относится к работе. Рад был поддержать трудолюбивого человека, мастера.

Делая обход махалли, заглядываю в обе пекарни: бизнес



СВЯТАЯ ПИЩА

с малых лет. Не зря с хлебом связано столько традиций и ритуалов. Лепешка из отчего дома помогала и согрела в пути, звала путешественника на родину из дальних странствий. К сожалению, многих еще надо учить соразмерять потребности с закупками. Сейчас, когда приобщиться к хлебу можно практически круглосуточно, не стоит брать лишнего. Бережное отношение к хлебу нужно воспитывать в школах на специальных уроках, говорить о том, сколько труда, воды и энергии затрачивается на выращивание пше-

бизнесом, а санитарные нормы никто не отменял. Создали условия, причем такие, чтобы трудящиеся рядом предприниматели не были конкурентами. Выяснили предпочтения населения, учли пожелания выпустить диетические виды хлеба. Не скрою, в первую очередь выслушивали мнение пожилых. Предложил предпринимателям наладить производство тоштерного хлеба. Может, кто-то и возьмется.

Наблюдаю, как вкусная продукция набирает популярность. Приходят взрослые, дети выбегают за булочками для перекуса на большой перемене.

БЕСЕДА, ЗАКОНЧИВАЮЩАЯСЯ ПИКНИКОМ

Девчонка в столовой скатала шарик из мякши и пульнула в одноклассника. Развиться «бою» не дала учительница, сделав замечание.

А потом третьеклассники школы №257 (именно рядом с ней находится пекарня моноцентра) собрались на внеклассное занятие Светланы Вальковой, посвященное хлебу. И он пришел к детям – в виде буханок и калачей, булок и батончиков самой причудливой формы. Гости ребята встретили теплыми рисунками, букетом из колосьев пшеницы, стихами и песнями. А уж пословицы сыпались, как зерно на элеваторе: «Хлеб везде

хорош – и у нас, и за морем», «Хлеб в пути не в тягость», «Хлеб да вода – богатыйская еда», «Хлеб да капуста лихого не попустят», «Хлеба край – и под елью рай, хлеба ни куска – и в палатах тоска». Приветствовали пахучую корзину хором: «Хлеб – всему голова!»

Внимательно слушали дети историю появления продукта, к которому они так привыкли. Оказывается, в Египте его выпекали на горячих от солнца камнях в виде пресных лепешек. От жары тесто быстро портилось, закисло, и его выбрасывали. Его подбирала бедняки и запекали. Так родился кислый хлеб.

А дальше учащиеся разбирали, сколько человек должны потрудиться, чтобы на столе появился каравай. Трактористы и комбайнеры, обмолотчики и мельники, водители и пекари. Зерно проходит длинный трудовой путь, прежде чем стать тем, о цене чего мы так редко задумываемся.

Результатом разговора о бережном отношении к хлебу стал ряд выводов.

* Берегите хлеб: он нелегко достается!

* Не оставляйте недоеденных кусков!

* Никогда не бросайте хлеб!

* Продлевайте жизнь хлебу! Увидев брошенный кусок, поднимите его – отдайте птицам или животным, но не оставляйте на земле, чтобы не затоптали в грязь человеческий труд.

– Хлеб – бесценное богатство! Именно поэтому мы не имеем права на пренебрежительное отношение к нему, – к итоговой фразе 3 «А» пришел

Женщина настолько изучила клиентуру, что готовит пакеты для некоторых заранее. И ведь ни разу не ошиблась. Вот молодой человек просит выставить десять буханок для бесплатной раздачи, расплачивается и тут же уходит.

Добрые примеры тоже заразительны, поэтому в магазине часто есть благотворительный хлеб для нуждающихся. Для нуждающихся. Пожалуй, этот адрес стоит подчеркнуть особо. Не называя себя, люди оплачивают определенное количество буханок и дают возможность есть вдоволь хлеба тем, у кого не хватает денег до пенсии или иные материальные трудности.

Однако надпись «Эхсон» становится привлекательной и для людей даже далеко не среднего, а высокого достатка.

Приехал на иномарке и гордо удалился под недоумевающими взглядами какой-нибудь старушки.

– Почему бы не взять, если предлагают бесплатно?! – рассуждают люди в дорожной одежде, ужинающие в ресторанах, имеющие квартиры с шикарной обстановкой. Им, может, и буханка эта не нужна вовсе, а развращающее понятие «бесплатно» манит...

Однажды продавец задала вопрос самому активному и стабильному дарителю:

– Не прекратит ли нам раздачу? Слишком много случайных людей вашей добротой пользуются.

– Даже если одна из буханок попадет точно по адресу, буду рад.

...Продавщица с улыбкой говорит сухонькой пенсионерке:

– Уберите деньги. Есть бесплатный хлеб.

Старушку смущенно благодарит и с благоговением берет буханку: помощь дошла до адресата.

Людмила АЛЕКСИЧ



ницы и ее переработку. Нельзя допускать, чтобы он попадал в пакеты с мусором.

Создавались пекарни после опроса населения. Когда, к примеру, готовили помеще-





Tanaga tashqaridan ortiqcha yukning tushishi lotincha g (ji) harfi bilan belgilanadi. Qizig'i, qizilishton daraxtdan kovak ochayotgan paytda uning boshiga 1000 g

og'irlikda yuk tushadi. Kosmonavtlar kosmik kemada yer atmosferasiga kirayotgan paytda ularning tanasiga 3-4 g og'irlikda yuk tushadi.

Qizilishton yoxud "o'rmon shifokori"

Arab tilida qizilishton "Naqqorul xashab" deyiladi. Ma'nosi "Tumshug'i bilan yog'ochni uruvchi" degani. Bu qushning tuzilishi aqlni lol qoldiradi.

Ko'pchiligimiz bu qush haqida eshitganmiz, ammo batafsil ma'lumotga ega emasmiz. Uning tumshug'i nihoyatda kuchli va metindek mustahkam bo'lib, bosimga chidamlidir. U xuddi parmalash asbobi (drel) kabi yog'ochni teshadi. Uning tumshug'i kuchlilikda, qattqlikda, tezkor harakat qilishda tengsizdir.

Bu qush juda mustahkam bosh suyagiga ham ega. Barcha qushlarda bosh suyak tumshuqqa birlashib ketgan. Ammo qizilishtonda tumshuq bilan bosh suyak bir-biridan alohida tarzda joylashgan. Shuningdek,

u tebranishlarni yutadigan, jarohatlarning oldini oladigan maxsus amortizatorga ega. Bu amortizator tumshuq bilan bosh suyagi orasidagi qalin to'qimadan iborat. Ushbu to'qima boshqa qushlarda mavjud emas. O'sha qalin to'qima daraxtga zarba berish paytidagi ortiqcha titrashlarni yutadi. U avtomashinalarning amortizatoridan yaxshi ishlaydi.

Qizilishton o'z inini daraxtdan kovak ochib quradi. Uning dumidagi patlari qattiq va o'tkir bo'lib, bunday patlar daraxtda in teshayotganda muvozanatni saqlashda yordam beradi. Kovak

ochish san'atida bu qush uncha-muncha quruvchi va teshuvchilarni ortda qoldiradi. U shiddat bilan zarba berar ekan, bir soniyada tumshug'ini daraxtga 9-10 martagacha uradi. Ba'zi kichik turdagi qizilishtonlar esa bir soniyada 15-20 martagacha urishi mumkin.

Yashil qizilishton daraxtni teshayotganda tumshug'i soatiga 100 km tezlikda harakatlanadi. Ammo bu tezlik uning miyasiga salbiy ta'sir qilmaydi. Chunki uning boshi va tumshug'i bir tekis chiziq bo'ylab chayqaladi. Ozigina nomutanosiblik ham qush miyasining chayqalishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shu o'rinda bir qiyos: qizilishton tumshug'i bilan daraxtga zarb berishdan hosil bo'ladigan faraziy halokatning hajmi inson boshi

bilan beton yerga urilishidan hosil bo'ladigan halokatga teng. Ammo qush o'zidagi amortizatsiya sababli hech qanday jarohat olmaydi. Har bir zarbning orasidagi vaqt soniyaning 1000 dan 1 ulushichadir.

Tanaga tashqaridan ortiqcha yukning tushishi lotincha g (ji) harfi bilan belgilanadi. Qizig'i, qizilishton daraxtdan kovak ochayotgan paytda uning boshiga 1000 g og'irlikda yuk tushadi. Kosmonavtlar kosmik kemada yer atmosferasiga kirayotgan paytda ularning tanasiga 3-4 g og'irlikda yuk tushadi.

Odatda, qizilishton kekxa daraxtlari ko'p o'rmonlarda yashaydi. U mana shu eski daraxtlardan o'ziga yemish axtaradi. Uni "o'rmon shifokori" deb atashlari bejiz emas. Qushning tili

hayratlanarli darajada uzun va ingichka bo'lib, hasharotlarni tutish oson bo'lishi uchun yopishqoq modda bilan qoplangan. Uning oyoqlari ham boshqa qushlamikidan ajralib turadi: kalta va baquvvat. Panjalari xuddi qisqich kabi — ikkitasi old tomonda, ikkitasi orqa tomonda joylashgan, daraxt po'stlog'iga mahkam yopishib olish uchun qulaydir. Qush daraxt kovaklaridagi hasharotlarni o'tkir tumshug'i va uzun tili bilan osonlikcha chiqarib oladi. Shu orqali daraxtlarning umri uzayishiga beixtiyor hissa qo'shadi.

Qush 4-7 ta tuxum qo'yadi. Erkagining boshida qizil rangli patlar urg'ochisiningiga nisbatan ko'proq bo'ladi.

Qirmizoy HAKIMOVA
tayyorladi.



Cho'pon va shifobaxsh shaftoli

(Ertak)

Qadim zamonda bir cho'pon yashagan ekan. Uning qirq ming tuyasi, o'ttiz ming yilqisi, yigirma ming qo'zisi bor ekan-u, o'n ikki xotinidan birorta ham farzandi yo'q ekan. Cho'pon har kuni Xudodan yolg'iz "tirmoq" so'rab, merosxo'ri yo'qligidan "oh" chekarkan.

Kunlardan bir kuni cho'pon tush ko'ribdi. Tushida nuroniy bir chol mehmon bo'libdi.

– Assalomu aleykum, buvajon, debdi cho'pon.

– Vaalaykum assalom, polvorjon, deb alik olib, so'zida davom etibdi nuroniy chol.

– Sening nolalaring Allohga yetdi. Endi sen Zomin tog'lariga borib, shifobaxsh shaftoli daraxtini top. Mevasini o'n bir mahramingga yedirib, mag'zini kenjangga ber. Shunda to'qqiz oy-u to'qqiz kundan so'ng murodingga yetasan. Ammo unutm, bu ne'matning sinovi bor, hali...

Cho'pon ertasi kuni saharlab manzil tomon chopqillabdi. Shifobaxsh daraxtni topib, mevasini o'n bir mahramiga, mag'zini kenjasiga yediribdi. Vaqt soati yetgach, cho'pon o'n bir qizli, bir o'g'illi bo'libdi.

Oradan o'n to'rt yil o'tgach, cho'pon podani o'tlatib turganda oldiga yalmog'iz kampir kelibdi-da:

– Meni o'zingga xotin qill, – debdi.

Cho'pon shundog'am o'n ikki mahrami borligi, ular ustiga yana kundosh olmasligini aytib, yalmog'izning taklifini rad etibdi. Jalajinning bundan jahli chiqib, cho'ponning o'g'lini duoyibat qilib, hushidan ayirib olib qochibdi. Uyg kelgach, yigitga damlama berib uyg'otibdi. Uni tutingan o'g'il qilishni istab, o'z boyliklari, tilla taqinchoqlar to'la sandiqlarini ko'rsatibdi. Faqat bir xonani ko'rsatmabdi.

Kunlardan bir kuni yalmog'iz bir yumush bilan uydan chiqib ketibdi. O'sha kuni yigit haligi xonani ochibdi. Qarasa xonaning ichida bir to'da cho'chqa bor emish. Bola hayron qolibdi. Cho'chqalar bolani ko'rib oldin kulishibdi, keyin yig'lashibdi.

– Nega sizlar meni ko'rib kulib, yig'layapsizlar? – deb so'rabdi yigit.

– Biz ham edik sendek, sen ham bo'lasan bizdek! – deb javob beribdi cho'chqalar.

– Agar qutilishning biror chorasi bo'lsa, aytinglar! – debdi yigit.

– Qutilishning chorasi bor, – deb so'zida davom etibdi cho'ch-

qalar. – Yalmog'iz hozir o'tin olib keladi-da, katta gulxan yoqadi. Keyin u olovga yog' solingan qozonni qo'yadi-da, birimizni uning ichiga tashlab, sho'rva qaynatadi. Sen sho'rva ichgach, jalajinni Ona deysan. Bir umr uning izmida bo'lasan. Kun kelib zerikkach, seni ham cho'chqaga aylantiradi-da, yangisini topib keladi.

– Jodugarni qanday mahf etish mumkin? – deb so'rabdi yigit sergaklanib.

– Yalmog'izning bo'yi pastligi uchun o'choqqa o't yoqadi. Sen esa qozonni kovlaysan. Shunda "Bo'yim yetmayapti. Kapkimi yaxshi aylantirilmayapman", deb yalmog'izni aldaysan. Jodugar ham "Qanday qilaman?" deb savol beradi. Sen "Ustimga chiqib, engashib kovlaysiz", deysan. Shunda u ustimga chiqishi bilan qozon ichiga ag'darib, darrov o't qalaysan. Jodugar o'lgach, undan ikkita xonqizi uchib chiqadi: biri qizil, biri qora. Qorasini ham qozonga tashlab qaynatasan. Qizilining ichini yorib, kukunini olasan. Kukunni bizga keltirib sepasan, – deb tushuntiribdi cho'chqalar.

Jodugar qaytib kelibdi-da, o't yoqib, yog' solingan qozonni qo'yibdi va yigitga qarab:

– Bolam, qozonni kovla-chil! – debdi.



YOSHLIK ILHOMLARI

– Buvijon, qozon kovlashga mening bo'yim yetmaydi. Undan ko'ra siz ustimga chiqib, kovlashib yuboring. O'tin qalashni o'zim ham eplayman, – debdi yigit.

Jodugar ko'nib, qozon kovlashga tushibdi. Shunda yigit chaqqonlik bilan kampirni qozonga itarib yuboribdi-da, tagiga o't qalay boshlabdi. Yalmog'izning ichidan uchib chiqqan qora xonqizini

qozonda pishirib, qizilini yorib o'ldiribdi. Ichidagi kukunni olib, cho'chqalarga sepibdi. Cho'chqalar yana odamga aylanibdi. Yigit u yerdagi jamiki boyliklarni olibdi-da, to uyiga yetguncha xalqqa tarqatibdi. Cho'pon bu voqeani odamlardan eshitgach, o'g'lini merosxo'r qilib, unga rahmatlar aytibdi.

Azim AXTAMOV



Tong ota boshlaganda tepalikdan esayotgan shamol derazamiz pardasini mayin silkitadi. Ertalab havo salqin bo'ladi. Bobom meni sovuq yemasin deb o'zining ko'rpasini ham ustimga yopib qo'ygan ekan.

Bobom namoz o'qish uchun supaga joynamoz yozdi va qiroat bilan azon aytdi. Uning ovozi xuddi alladek orom baxsh etardi, menga.

Bobomning aytishicha, azon aytilganda osmonning ko'zi ochilar, o'sha payti kim nimani niyat qilsa, amalga oshar ekan. O'rindan shartta turdim-da, hammamiz sog' bo'lib yurishimizni, keyin bobom Pahmoqvoyni yomon ko'rib qolishini, u bilan emas, men bilan ko'proq bo'lishini niyat qildim.

Pahmoqvoy bizning, ayniqsa, bobomning ovunchog'i. Hamma gapga tushinadi, go'yo odam deysiz uni. Bu itni bobom olib kelgan. Unga shunday mehr berganki, Pahmoqvoy ham bobomning yonidan sira ketmaydi. Bobom bizlar uchun bozordan

nima xarid qilmasin, Pahmoqvoy ham bundan benasib qolmaydi. Bu it bobomni unga atab olib kelayotgan narsalar uchun yaxshi ko'radi, deb o'ylar edim.

Bir kuni bobomga Pahmoqvoyni mendan ko'ra ko'proq yaxshi ko'rishini, qayoqqa bormasin, meni emas, uni olib ketishini, erkalashini aytdim. Ammo gaplarimdan bobom xafa bo'lganini sezib, keyin juda pushaymon bo'lganman.

Kunlarning birida bobom erta tongda tezda kelishini aytib, uydan chiqib ketdi. Pahmoqvoy uyda qoldi. Havo sovuq va osmon bulutli edi. Bobom negadir tezda qaytmadi. Tushdan keyin havoning

avzoyi birdan buzildi. Yomg'ir yog'a boshladi. U borgan sari tezlashar, orada do'lga aylanib, uyimiz tomini teshgudek bo'lardi. Bu ham yetmagandek, Pahmoqvoy eshik oldiga kelib tinimsiz g'ingshirdi. Nimaga buncha bezovtaligiga hayron bo'lib, eshikni ochdim. Shunda Pahmoqvoy uyimiz orqasidagi tepalik tomon yugurib ketdi. Akam ikkimiz uning ortidan ergashdik, yer loy va sirpanchiq edi. Birdan bobom xayolimga keldi: bu loygarchilikda qanday yurgan ekan?!

Tepalikning ortida katta jarlik bor. Ne ko'z bilan qarayki, bobom u yerda

behush yotardi. O'ziga keltirib, uyga olib keldik. Ammo uning o'ng oyog'i singan edi. Tabib chaqirdik. Aytishicha, suyakning bitib ketishi qiyin ekan. Chunki keksaygach, suyaklar mo'rtlashib qolar ekan. Bobom bularni eshitgan bo'lsa ham, o'zini yaxshi his etayotganini aytib, bizni xotirjam qilishga urinardi.

Ammo bobom shundan so'ng uzoq yashamadi. Bizni tashlab ketdi...

Uyimiz huvillab qoldi. O'zimni qo'yarga joy topa olmasdim. Derazadan supaga boqar ekanman, bobom o'tiradigan joydan sira ko'zimni uzolmasdim. Bobom u yerda menga turli ertak va rivoyatlar aytib berar, har zamonda Pahmoqvoyni ham so'z qotib qo'yardi. Pahmoqvoy ham bir narsani tushungandek, akillab qo'yardi.

Shu onda Pahmoqvoy xayolimga keldi-yu uni qidira boshladim. Borib qarassam, u ham bobom o'tirgan joydan ko'zini uzmay boqib turardi. Uning ko'zalaridagi yoshni ko'rib, yuragim ezildi. Yoniga yaqin bordim. Boshini siladim. Bobomni undan qizg'anganimni, o'zimni aybdor his qilayotganimni aytdim. Go'yo u ham gaplarimni tushungandek, ingrab-ingrab qo'yardi. Pahmoqvoy bobomni shu darajada yaxshi ko'rar ekan, har kuni bomdod mahali qabristonga borar ekan.

Bir kuni Pahmoqvoy kun bo'yi uyda bo'lmadi. Uni izlab topolmadik. Shu topda xayolimga qabriston keldi va o'sha yoqqa qarab yugurdim. Bobomning qabriga bordim-u Pahmoqvoyni o'sha yerda yotganini ko'rdim. Sekin silay boshladim. Lekin u qimir etmasdi...

Qirmizoy HAKIMOVA

PREZIDENT SAYLOVIDA YOSHLAR FAOLLIGI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

befarq emas, albatta.


Ularining siyosiy dunyo qarashi kamol topib, davlat va jamiyat miqyosida ro'y berayotgan jarayonlarga o'z munosabatini bildira olish qobiliyati shakllangan. Demak, yoshlar Prezident saylovida faol va munosib ishtirok etadi.

Saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakti asosida ishlab chiqilgan bir nechta huquqiy-me'yoriy hujjat asosida tashkil etiladi. Bu hujjatlar umumlashtirilib Xalqaro saylov standartlari deb atalishi va unda belgilangan qoidalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, xususan, Saylov kodeksiga implementatsiya qilingani mamlakatimiz saylov qonunchiligi barcha demokratik tamoyillarga mos kelishining yaqqol dalilidir. Umumiylik, tenglik, to'g'ridan to'g'ri va yashirinlik tamoyillariga qay darajada amal qilinayotgani saylovni kuzatish bo'yicha aqab qilingan hujjatlarda o'z aksini topgan. Saylov jarayonlarining ochiqligi va oshkorligi esa saylovchilarning to'g'ri tanlovni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Yaqinda, "Ijtimoiy fikr" respublikalari jamoatchilik fikrini o'rganish markazi: "O'zbekiston, saylov - 2021" mavzusidagi jamoatchilik fikri telerayoni so'rovnomalari uchun bosqichini o'tkazdi. "O'zbekiston aholisining qancha qismi Prezident saylovida ishtirok etadi?" degan savol o'rtaga tashlandi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga 2021-yil 24-oktabr kuni bo'ladigan saylovi munosabati bilan O'zbekiston fuqarolarining elektoral xulq-atvori xususiyatlari aniqlandi, o'zbekistonliklarning elektoral nuqtayi nazarlari, ularning ovoz berishda ishtirok etishga tayyorligi va mamlakat siyosiy hayotiga jalb etilganligi darajasi o'rganildi. So'rovda mamlakatning turli mintaqalarida yashovchi fuqarolar, shaharliklar va qishloqdagilar, erkaklar va ayollar, turli millat va ijtimoiy qatlamlar vakillari, iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlarida band bo'lganlar, yoshlar va o'rta hamda katta yoshdagi kishilar ishtirok etdilar.

Yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, ularning bandligiga

ko'maklashish, tadbirkorlik g'oya va tashabbuslarini rag'batlantirish, ular munosib daromad olishi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, bu borada olib borilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqishda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi beqiyos ahamiyatga egadir. Bundan tashqari,



Harakatlar strategiyasida aytilganidek, mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxtsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik saholiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Ma'lumki, saylovlar kishilik jamiyatining bir necha asrlilik tarixiy rivojlanishi mahsuli bo'lib, davlat va jamiyatning takomillashgan modellari shakllantirish maqsadida paydo bo'lgan institutdir. Bugungi kunga kelib, jahondagi deyarli barcha mamlakatlarda (mutlaq monarxiya boshqaruviga ega bo'lgan mamlakatlar bundan istisno) davlat hokimiyati va o'zini o'zi boshqarish organlarini shakllantirish bilan bog'liq demokratik saylovlar siyosiy tizimning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bo'ldi.

Har bir millatning, mamlakatning ertasi, kelajak taqdiri yosh avlodning qo'lida ekani sir emas. Shu sababli, yoshlarning siyosiy-ijtimoiy faolligi davlat ahamiyatiga molik masalalardandir. Shukrki, mam-

lakatimizda so'nggi yillarda yoshlar siyosatiga e'tibor sezilarli darajada kuchaydi. 2016-yil 14-sentabrda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Ushbu qonun yillar davomida mavhum bo'lib kelgan huquqiy tushunchalarga aniqlik kiritish bilan birga, yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga ko'tarishda muhim omil bo'lmoqda. Joriy yil 20-aprel kuni qabul qilingan "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish,



ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Prezident farmoni bu boradagi ishlarning mantiqiy va uzviy davomidir.

Biz, yoshlar saylov jarayonlarining tashkiliy ishlarida ham doim faol bo'lganmiz. 2019-yilgi saylovlarda Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazuvchi okrug saylov komissiyalari a'zolarining 144 nafari hamda uchastka saylov komissiyalari a'zolarining 20 394 nafari 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar edi. Joriy yil mamlakatimizda o'tkaziladigan Prezident saylovida yoshlar faolligi o'tgan saylovlardagidan ham ko'proq bo'lishi kutilayotgani quvonarli hol.

Ijtimoiy tarmoqlar hamda ommaviy axborot vositalari orqali yoshlarning saylov qonunchiligi bo'yicha bilimni oshirish ham dolzarb masaladir. Shuningdek, ularga joylarda o'tkaziladigan tadbirlar orqali saylov qonunchiligining o'ziga xos xususiyatlari va mazmun-mohiyatini tushuntirish, yigit-qizlarni faol fuqarolik pozitsiyasida tarbiyalash g'oyat muhim ahamiyatga ega. Bunday tadbirlar yoshlarimizning siyosiy ongini hamda bilimni yanada oshirishga ko'mak beradi.

Umuman olganda, saylovlarda birinchi marta ishtirok

24 **OKTABR 2021-YIL** **O'ZBEKISTON PREZIDENTI SAYLOVI**

etayotgan yoshlarning doimiy ravishda o'zlarining siyosiy-huquqiy bilimlarini oshirib borishi, ularning jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi, bosma va elektron ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, internet tarmog'i orqali muntazam berib borilayotgan saylov jarayoni bilan bog'liq xabar va yangiliklarga befarq bo'lmasliklari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy sohalarida keng qamrovli islohotlarning samarasi va ta'sirchanligi oshishiga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, yoshlarning siyosiy bilimi, huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida yoshsaylovchi.uz platformasi ishga tushirildi. Ushbu platforma orqali saylov jarayoni haqida zarur ma'lumotlarni olish, saylov uchastkasini aniqlash mumkin. Saylov uchastkasini aniqlash uchun pasport seriyadan o'tgan holda saylovda volontyor yoki trener sifatida ishtirok etish imkoni yaratilgan. Bu orqali ular saylov jarayonini to'g'ridan to'g'ri kuzatishlari, xorijiy ekspertlar va vakillar bilan birgalikda tajriba o'ttirishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi mazkur jarayonga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xohish-irodasi erkin bildirilishini ta'minlovchi kafolatlarni belgilaydi. Saylov kodeksining 4-moddasida saylov kuni o'n sakkiz yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari saylash huquqiga egaligi mustahkamlab qo'yilgan.

Xo'sh, nima uchun aynan 18 yosh saylov yoshi sifatida qabul qilingan? Mutaxassislar fikricha, bu yoshda fuqarolarimizda siyosiy dunyoqarash kamol topib, davlat va jamiyat miqyosida ro'y berayotgan jarayonlarga munosabatini bildira olish qobiliyati shakllanadi. Mazkur yoshda har bir yosh umumiy 9 yoki

11 yillik ta'limni tamomlagan, 16 yoshida fuqarolik pasportiga ega bo'lgan va jismoniy hamda ma'naviy, shuningdek, huquqiy jihatdan voyaga yetgan deb hisoblanadi. Ushbu jihatlarni hisobga olgan holda garchi 18 yoshdagi fuqarolar ta'limi bosqichida ta'lim olishni davom ettirayotgan bo'lsa ham ularga saylovda ovoz berish jarayonida ishtirok etishlariga huquq berilgan.

Saylov kampaniyasi davrida siyosiy partiyalar va ular tomonidan prezidentlikka ko'rsatilgan nomzodlar to'g'risida yetarli ma'lumotlarga ega bo'lmaslik yosh saylovchining kimga ovoz berish borasida asosli qaror qabul qilishda qiynchilik tug'diradi. Ya'ni yosh saylovchi o'z kelajagi, mamlakat taqdiri borasidagi ovozini kimga ishonib berishini avvaldan rejalashtirmagani bois bu borada aniq qaror qabul qila olmaydi. Natijada saylov kuni saylovda dasturi va g'oyalari bilan yaqindan tanish bo'lmagan nomzod uchun taxminiy ovoz berishga majbur bo'ladi yoki saylov haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmagani bois saylov borasidagi siyosiy huquqidan to'g'ri foydalanish imkoniyati kamayib ketadi. Shuni alohida qayd etib o'tish zarurki, yosh saylovchi o'z saylov uchastkasida hozir bo'lgan dastlabki e'tibor qaratishi lozim bo'lgan jihatlardan biri - bu uchastka saylov komissiyasi tomonidan tuzilgan saylovchilar ro'yxatidan o'z familiyasi, ismi va otasining ismini qidirishdir.

O'zbekiston hayotida muhim siyosiy voqealardan biri bo'lgan Prezident saylovini xalqaro standartlar va umuminsoniy tamoyillar asosida o'tkazish uchun barcha imkoniyatlar yetarli. Har bir yosh o'z taqdirini yurt taqdiri bilan bog'lar ekan, undagi siyosiy jarayonlarda ham faol ishtirok etishi, davlat boshqaruvida munosib nomzodni saylash orqali qatnashishi muhim ahamiyatga ega.

O'z haq-huquqi va burchlarini chuqur anglab yetgan yangi avlod siyosiy jarayonlarda o'z faolligini ko'rsatibgina qolmay, mamlakatimizning taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladigan faol qatlamga aylandi.

YOSHLAR OVOZI

MUASSIS:
O'ZBEKISTON
YOSHLAR ITTIFOQI
MARKAZIY KENGASHI

BOSH MUHARRIR:
Hamza
ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda
№ 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

MAS'UL KOTIB:
Yelena KALININA

NAVBAATCHI MUHARRIR:
Iqbol PARDAYEVA

MUSAHHILAR:
Shahribon RAHMATOVA,
Olimzoy HAKIMOVA

Gazeta materiallari tahrirat
kompyuter markazida teritiladi va
sahifalandi.

TAHRIRIYAT MANZILI:

100083, Toshkent, Matbuotchilar
ko'chasi, 32.

Telefonlar:

(71) 233-22-16.
(71) 236-79-95.



"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi.
Hajmi - 3 bosma taboq.
Korxonamanzili: Buyuk Turok ko'chasi, 41.

Indekslar: 203, 3203
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma G-1055
Adadi - 717

Bosilishga topshirish vaqti - 21.00
Topshirildi - 20.00